

IBN MOLIK “ALFIYYA” ASARIDA KELTIRGAN QOIDALARNI TALQIN ETISHDA MISOLLARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

THE METHODOLOGY OF USING EXAMPLES IN INTERPRETING THE RULES GIVEN BY IBN MALIK IN HIS WORK “ALFIYYA”

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИМЕРОВ ПРИ ТОЛКОВАНИИ ПРАВИЛ, ИЗЛОЖЕННЫХ ИБН МАЛИКОМ В ЕГО ТРУДЕ «АЛЬФИЙЯ».

Ochilov Avazbek Dilshod o'g'li

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti

kafedrasi o'qituvchisi

avazbekochilov2001@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Ibn Molikning “Alfiya” asarida qo‘llagan metodologik yondashuvi tahlil qilinadi. She’riy shakldagi ilmiy matnda qoidalarni misollar orqali bayon etish uslubi, nazariyani soddalashtirishdagi roli va talabalarga grammatik tamoyillarni chuqur o‘zlashtirishda beradigan amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ibn Molik, Alfiya, metodologiya, she’riy grammatika, misollar orqali talqin, arab tili grammatikasi, qoidalarni tushuntirish, nazm uslubi, grammatik tamoyillar, talqin usullari, misol metodikasi, sifatdash va ko‘plik, nahv ilmi, o‘quvchilar uchun yengillik, ilmiy yondashuv.

Annotation: The article analyzes Ibn Malik’s methodological approach in his “Alfiya.” It highlights how the poetic structure relies on illustrative examples instead of explicit definitions, facilitating clearer understanding of grammatical principles. The study emphasizes the practical value of this method for learners in mastering interconnected linguistic rules.

Keywords: Ibn Malik, Alfiya, methodology, poetic grammar, interpretation through examples, Arabic grammar, explanation of rules, poetic style, grammatical principles, interpretation methods, example methodology, adjective and plural, grammar, ease for students, scientific approach.

Аннотация: В статье анализируется методологический подход Ибн Малика в его труде «Альфия». Отмечается, что поэтическая форма опирается на примеры вместо прямых определений, что облегчает понимание грамматики. Подчёркивается практическая ценность такого метода для глубокого усвоения связанных языковых правил.

Ключевые слова: Ибн Малик, Альфия, методология, поэтическая грамматика, интерпретация на примерах, арабская грамматика, объяснение правил, поэтический стиль, грамматические принципы, методы интерпретации, методология на примерах, прилагательные и множественное число, грамматика, удобство для студентов, научный подход.

Metodologiya muallif o'z asarini yozishda qo'llagan yondashuvidir. Yo'nalishi va mazusidan qat'iy nazar har bir asar o'ziga xos metodologiya asosida bitilgan hisoblanib, uni o'rganish ilmiy sohadagi yangi yutuqlarga erishish imkonini beradi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid ilmiy asarlardagi mualliflarning yondashuvini tadqiq etish soha vakillari uchun yuqori ahamiyat kasb etadi.

Asar nasriy shaklda yozilgan bo'lsa, uni tushunish va yondashuvni aniqlash nisbatan oson bo'lishi, ammo ibn Molikning "Alfiya"si kabi she'riy shaklda yozilgan bo'lsa, uning tuzilishini anglash va muallif metodologiyasini o'zlashtirish murakkabroq kechishi ma'lum. Bunday tadqiqot she'riy uslubda yozilgan ilmiy matn o'rganuvchilariga uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, matn samaraliroq o'zlashtirilishida qo'l keladi.

Nasriy uslubda yozilgan asarlarda, odatda, muallif metodologik yondashuvini asarning kirish qismida tushuntirib o'tadi. She'riy kitoblar esa odatda "Allohga hamd aytish" va Payg'ambar (s.a.v)ga salovot va salom yo'llash bilan boshlanib, muallif to'g'ridan-to'g'ri mavzuga kirishib ketadi, o'z metodologiyasini alohida izohlab o'tmaydi.

Bu xususiyat ibn Molikning "Alfiya"sida ham yaqqol namoyon bo'ladi. U asarni Allohga hamd va Payg'ambar (s.a.v)ga salovot bilan boshlaydi. So'ng o'z shaxsiy hayotiga qisqacha to'xtalib, nutq turlari va ularning tarkibiy qismlarini ilmiy tahliliga kirishadi. Ibn Molik asarni kirish qismidan boshlab, qoidalar mohiyatini aniq va lo'nda ifodalar orqali ochib bergan, grammatika qoidalarini izchil va mantiqiy tartibda joylashtirilgan.

Ushbu yondashuv ilmiy tushuncha va grammatik tamoyillarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, natijada, talabalarga nazariyani puxta o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Shuning uchun "Alfiya" kitobini ta'lim olayotgan talaba matnni chuqur o'rganishi, har bir baytning mazmunini sinchkovlik bilan tahlil qilishi va muallif metodologiyasini anglash uchun asosiy tamoyillarga tayanishi zarur.

Mazkur asarning yondashuv uslubi tahlil qilinib, quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

A. Ibn Molik "Alfiya" asarida qoidalarini tushuntirish uchun ko'pincha misollar keltiradi.

Muallif ko'pincha qoidalarini tushuntirish yoki biror grammatik hodisani ochib berish asnosida misollar keltirgan. Barcha sohalar kabi til sohasida ham qoidalarining amaliy misollar orqali tushuntirilishi mantiqiy asosda teranroq anglash imonini yaratadi.

Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Kalom va uning tarkibiy qismlari bo'limida Ibn Malik shunday deydi:

كلامنا لفظٌ تَفِيدُ كاستقم
واسم و فعلٌ ثم حرف الكلم⁵⁸

Gap – "to'g'ri bo'l"ga o'xshash foydali lafzdir. So'z esa ism (ot) yo fe'l yo harf (predlog)dir".

⁵⁸ سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، 69 ص.

Arab tilshunosligida kalom (gap) atamasi quyidagicha ta'riflanadi: "U qo'shimcha so'zlarga ehtiyoj sezmaydigan holatda ma'nosi tugallangan lafzlardir"⁵⁹, yoki "Gap – ifodalanishi ko'zlangan xabarni yetkazadigan foydali lafzlardir. Foydali lafz deganda esa tushunish borasida savolga o'rin qoldirmaydigan darajadagi tugal ma'no anglatgan lafzlar nazarda tutiladi"⁶⁰.

Biroq, ibn Malik ushbu ta'rifni ixcham shaklda ifoda etib, shunchaki "كاستقم" (masalan, "to'g'ri bo'li") deb aytadi. Shu orqali "kalom" atamasining ta'rifidagi "ma'no tugallangan bo'lish lozim" degan shartni misol orqali bayon etib, qoida sifatida keltirishga hojat qoldirmagan⁶¹.

2. Ibn Molikning "Mavsul" bobidagi bayti:

كذلك حذف ما بوصفٍ خُفِضَا
كأنت قاضٍ بعدَ أمرٍ من قضى⁶²

"Xuddi shunday, tavsif bilan yashiringan omil tushib qolishi mumkin. Masalan, "hukm qilmoq" fe'lining buyruq shaklidan so'ng "sen hukm chiqaruvchisan" (gapi keladi – "qanday hukm chiqarmoqchi bo'lsang, chiqaraver" ma'nosida)".

Ushbu baytda qaratqich kelishigida kelgan, o'zidan oldingi otni ifodalaydigan olmoshning gapda tushib qolishi haqida so'z yuritiladi. Ibn Molik ushbu qoida, agar olmosh sifat-dosh shaklida kelgan hol vazifasidagi so'z bilan izofa hosil qilsa amalda bo'lishini nazarda tutgan. Biroq u bu qoidani to'g'ridan-to'g'ri aytmagan, balki misol orqali ifodalagan:

"كأنت قاضٍ" (masalan, "Sen hukm chiqaruvchisan").

Bu misol Qur'ondagi: "فَاقْضِ مَا أَنْتَ قَاضٍ" ("Sen hukm qilmoqchi bo'lgan" narsani hukm qil") oyatiga ishora qiladi. Bunda asl holat quyidagichadir: "مَا أَنْتَ قَاضِيهِ" (ya'ni, "Sen hukm qiladigan narsani").

3. Ibn Malikning "Muftado" (ot kesimli gap egasi) bobidagi bayti:

"مبتدأ زيدٌ وعاذرٌ خيرٌ
إن قلت: زيدٌ عاذرٌ مَنْ اعتذر⁶⁴

"Muftado – Zayd, xabar – kechiruvchi,

Agar sen: "Zayd oqlovchidir" desang, bu kifoya qiladi".

Ibn Malik ushbu o'rinda "Muftado" atamasini aniq ta'riflamay, misol keltirgan, xolos.

Abu Hayyan shunday deydi: "Ibn Malik muftadoni ta'riflamagan, balki uni misol sifatida keltirgan. Biroq misol orqali biror narsaning mohiyatini tushunib bo'lmaydi. Ibn Molik bu uslubni ko'p boblarda qo'llagan"⁶⁵.

Shu bilan birga, abu Hayyanning bu fikriga e'tiroz bildirish ham mumkin. Chunki ta'rif berishning turli usullari mavjud, xususan, ilmiy fanlarda misollar orqali

⁵⁹ مصطفى الغلاييني، جامع الدروس العربية، بيروت، مؤسسة الرسالة ناشرون، 2023، ص 67.

⁶⁰ مغني اللباب، 490 ص.

⁶¹ جمال الدين محمد، شرح ابن ناظم، دار الكتب العلمية، بيروت 2000، ص 20.

⁶² سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، ص 84.

⁶³ Toha surasi 72-oyat.

⁶⁴ سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، ص 86.

⁶⁵ محمد يوسف أبي حيان، شرح أبي حيان، دار الكتب العلمية، 1986، ص 36.

ta'riflash ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa, agar ta'rif nazm shaklida bo'lsa, uni o'rganish va yodlashni osonlashtirish maqsadida misollarga tayanish maqbul usul hisoblanadi.

4. Foil (fe'l kesimli gap egasi) bobidagi bayt:

الفاعل الذي كمر فوعي أتى
زيدٌ مُنيراً وجهه، نِعَمَ الفتى⁶⁶

“Foil – marfu’ (bosh kelishikda) holatda keluvchi so‘zdir, masalan, Zayd yuzidan nur taralyotgan holda keldi. U qanday yaxshi yigit”.

Ibn Molik ushbu o‘rinda ham foil (fe‘l kesimli gap egasi)ni aniq ta’riflamagan, balki misollar keltirish bilan cheklangan.

5. Maf’ul ma’hu (birgalik holi) bobidagi bayt:

يَنْصِبُ تَالِي الْوَاوِ مَفْعُولًا مَعَهُ، فِي نَحْوِ:
سيرى والطريقَ مُسرَّعةً⁶⁷

“Vaov harfidan keyin kelgan so‘z ma’ful ma’ahu (birgalik holi) bo‘lib, mansub (tushum kelishigida) bo‘ladi, masalan, “yo‘l bo‘ylab tez yur”,

Bu o‘rinda ham ibn Molik birgalik holiga alohida ta’rif bermay, misol bilan tushuntirishni kifoya deb bilgan.

6. Fe’lni shart mayliga o‘tkazuvchi omillar bobidagi bayt:

و تَخَلَّفَ الْفَاءُ إِذَا الْمَفْجَاةُ،
كَانَ نَجْدٌ إِذَا لَنَا مَكْفَاةٌ⁶⁸

“Ba’zan “ف” harfi o‘rniga to’satdanlikni bildiruvchi “إذا” keladi”, masalan: “agar topsak, bas, bizda mukofot bo‘ladi”.

Arab tilida shart maylida ifodalangan gap ketidan ot kesimli gap kelsa, “ف” bog‘lovchisi kiritilishi kerak. Ammo bu yerda “إذا” kiritilgan bo‘lib, u “ف” bog‘lovchisining o‘rmini bosishi mumkin. Ibn Molik mazkur bobda ham bu jumla ot kesimli gap ekanini ochiq aytmay, misol orqali tushuntirgan⁶⁹.

7. Siniq ko‘plik bobidagi bayt:

فِي نَحْوِ رَامٍ ذُو اطْرَادٍ فَعْلَهُ
و شَاعَ نَحْوَ كَامِلٍ وَ كَمَلَهُ⁷⁰

“Sifatdosh shaklidagi kelgan “رام” kabi so‘zlarning ko‘pligi qolipida, “كامل” kabi so‘zlarning ko‘pligi esa qolipida bo‘ladi”.

Muallif bu bobda siniq ko‘plik shakllariga to‘xtalib o‘tgan:

فَعْلَةٌ vaznida ko‘plik yasalishi uchun so‘z sifatdosh vaznida kelishi, vaznning uchinchi o‘zak harfi illatli harflardan biri bo‘lishi hamda sifatdosh aqli mavjudotni ifodalashi kerak. Masalan: رَمَاءٌ - otuvchi - otuvchilar.

فَعْلَةٌ vaznida ko‘plik shakli yasalishi uchun esa so‘z sifatdosh vaznida kelishi

⁶⁶ سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، 99 ص.

⁶⁷ نفس الكتاب، 108 ص.

⁶⁸ سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، 154 ص.

⁶⁹ محي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل، مؤسسة الرسالة، دمشق 2022، الجزء الرابع 38 ص.

⁷⁰ سليمان ابن عبد العزيز، ألفية ابن مالك، مكتبة دهر الكنهج، الرياض، 164 ص.

kerak, lekin uchinchi o'zak harfi sog'lom harflardan biri bo'lib, bunda ham aqli mavjudotga nisbatan qo'llanilishi shart qilinadi. Masalan: **كامل** - **komil** - **komillar**⁷¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ابن مالك، محمد بن عبد الله. **ألفية ابن مالك**. تحقيق محمد محيي الدين عبد الحميد. القاهرة: دار الحديث، [بدون تاريخ]. 160 ص.
2. ابن عقيل، عبد الله بن عبد الرحمن. **شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك**، ج1-2. تحقيق محمد محيي الدين عبد الحميد. بيروت: دار الفكر، 1995. ج1: 448 ص، ج2: 500 ص.
3. الأشموني، حسن بن عبد الله. **شرح الأشموني على ألفية ابن مالك**، مع حاشية الصبان، ج1-4. بيروت: دار الكتب العلمية، 2000. ج1: 392 ص، ج2: 384 ص، ج3: 376 ص، ج4: 400 ص.
4. المكودي، محمد بن محمد. **شرح المكودي على ألفية ابن مالك**. بيروت: دار الكتب العلمية، 2003. 416 ص.
5. ابن هشام، عبد الله بن يوسف. **أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك**، ج1-4. بيروت: دار الجيل، 1997. ج1: 360 ص، ج2: 350 ص، ج3: 342 ص، ج4: 330 ص.

⁷¹ محي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل، مؤسسة الرسالة، دمشق 2022، الجزء الرابع 121 ص.